



## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING O'RNI

*Xoliqova Susanna Serverovna*

*O'quv tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari Qashqadaryo viloyati  
Qarshi tumani Yengil sanoat kolleji*

*Xidirova Maftuna Abdivaliyevna*

*Iqtisod fani o'qituvchisi Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman Yengil sanoat  
kolleji*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyot taraqqiyotida yengil sanoat tarmoqlarining xissasi va uning mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni, uni rivojlantirishning ahamiyati va geografik jihatlari yoritilgan. Qolaversa, yengil sanoatning aholi bandligiga ta'siri, xom-ashyo manbalari haqida atroflicha mulohazalar bayon qilingan. respublika yengil sanoati rivojlanishida tarmoqlarning ahamiyati o'rganilgan.

**Kalit so`zlar:** iqtisodiyot, sanoat, to'qimachilik, hissa, tarmoq, qishloq xo'jaligi, xom-ashyo, tikuvchilik, bandlik, resurs, ixtisoslashuv.

### **KIRISH.**

O'zbekiston iqtisodiy hayotida sanoatning ham o'ziga xos muhim o'rni bor. Chunki u mamlakat iqtisodiy industrial sektorining yetakchi bo'g'ini, moddiy ishlab chiqarishining asosiy sohalaridan biri sanaladi. Mustaqillik yillarida sanoat ham iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish yo'lida rivojlandi. Bu jahada ham olib borilgan islohotlar natijasida sanoat tarmoqlarida xilma-xil mulkchilik va xo'jalik yuritishning bozor usullari qaror topdi. Natijada, yurtimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishida bu islohotlarning samarasini benihoya katta bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, istiqlol sharoitida O'zbekistonda sanoat sohasida olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar va ularning ishlab chiqarish rivojiga ta'sirini o'rganish ivojlanish darajasiga va xalqaro vaziyatga bog'liq hisoblanadi.mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoat tarmog'i o'z



rivojlanish tarixiga ega. XX asr boshlarida O'zbekistonda yengil sanoat soxasi asosan paxtani qayta ishlash korxonalaridan iborat bo'lgan. Yalpi sanoat mahsulotining qariyb 4/5 qismi shu sohaga to'g'ri kelgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston iqtisodiyotida yengil sanoat tarmog'i salmoqli o'rinni egallaydi. Bu tarmoqning rivojlanishi aholi bandlik qismini ko'paytiradi. Tarmoq sohalarining taraqqiyoti va iqtisodiyotdagi hissasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolani yozish davomida deskurs, ekspriment, xulosa chiqarish, analiz va sintez metodlari qo'llanildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda to'qimachilik va yengil sanoat O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda markaziy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial kompleks bo'lib, uning tarkibiga paxta tozalash zavodlaridan tashqari to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, kun-poyabzal, gilamchilik, chinnifayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarilgan sohalarda 142ta korxona mavjud. Yengil sanoat tarmog'i asosan, aholi iste'moli uchun mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bu jarayon o'z navbatida, bozorning katta bir qismi mahsulotlar bilan to'lishini ta'minlaydi. Qolaversa, tarmoq mamlakat aholisini katta miqdordagi ish o'rirlari bilan ta'minlaydi, jumladan, bu tarmoqda asosan ayollarning band bo'lishi sanoat hududlarida demografik balansni ushlab turish imkoniyatini bermoqda. Mamlakatimizni yanada yuksaltirish, yangilash hamda modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni amalga oshirish natijasida yurtimiz jahondagi sanoqli davlatlar qatorida e'tirof etilmoqda. Tabiiyki, iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgan. Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyordan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ichki tizimga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari umumlashmasi hisoblanadi. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ichki chizimda amalga oshirilishi belgilangan. Yengil sanoatda paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar,



sun'iy charm mahsulotlaridan xomashyo sifatida foydalanib kelinadi. Bu tizimning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, poyabzal sanoatlaridir. Yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda foydalaniadi. Yengil sanoat tarmog'i qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq. Qishloq xo'jaligi yengil sanoatga o'simlik (paxta, lub, jun, kanop, zig'ir) va hayvon (teri, mo'yna, jun, ipak, shox) xom-ashyosini yetkazib beradi. Yengil sanoatning asosiy tarmog'i - to'qimachilik sohasi hisoblanib, bunda ko'proq xotin-qizlar mehnatidan foydalaniadi. Shu bois ayollar ayollar mahnat resurslaridan to'laqonli foydalanish maqsadida to'qimachilik sanoatini aholi ko'p to'plangan va og'ir sanoat rivojlangan joylarda qurish maqsadga muvofiq. Bunda to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar mehnat resurslari va xom-ahyo manbalari muhim rol o'ynaydi. Respublika sanoat korxonalari umumiy hajmida yengil sanoat hissasi 16,9% ga to'g'ri keladi.

## XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytish joizki, yengil sanoat — iqtisodiyotning eng dinamik va keng tarqalgan tarmoqlaridan biri bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashylarni kamaytirish, omborlarni to'ldirish va aholi ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. O'zbekiston uchun yengil sanoat, ayniqsa, paxta sanoati, to'qimachilik, kiyim-kechak va poyabzal ishlab chiqarish, so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, milliy iqtisodiyotning asosiy sektorlaridan biriga aylangani faktlarda o'z aksini topgan. Ushbu maqolada yengil sanoat korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, ahamiyati, iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri hamda uning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar tahlil etildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017- yil 1-avgustdagি №3-5024 sonli Qarori.



2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
  3. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi.22.12.2017
  - 4.M.Azlarova, G.Shanazarova. —Yengil sanoat texnologiyasi! fanidan ma'ruza darslari uchun o'quv-uslubiy majmua.– Toshkent. Iqtisodiyot, 2017 yil.
  5. Haydarov O.A. Poyabzal va charm-attorlik buyumlarni modellashtirish asoslari:o'quv qo'llanma -T.: Sharq, 2010
  - 6.Yo'ldoshev N., Kadirxodjayeva N. Ishlab chiqarish tehnologiyalari. Darslik. 2014yil.
  7. Баранова А.А., Аленицкая Ю.И. Технология и оборудование текстильного производства. Практикум: учебное пособие. - Витебск: ВГТУ, 2008.
  8. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2007.
- Internet saytlari
9. [www.economics .ru](http://www.economics.ru)
  10. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
  - 11 [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
  13. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)